

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1  
2024



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 788 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-fevralda ruxsat etildi.*

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMIB birinchi prorektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati.....	10
<b>Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati .....	16
<b>Gulnora Abdurahmonova</b>	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari .....	22
<b>S. R. Topildiyev</b>	
Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi .....	28
<b>Muratova Shohista Nimatullayevna</b>	
Green Economy in Tourism in Uzbekistan.....	32
<b>Alieva Makhbuba Toychievna</b>	
Инновационные подходы в сельском туризме: "Зеленые маршруты" .....	36
<b>Голышева Елена Вячеславовна</b>	
Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari .....	42
<b>Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloevich</b>	
To'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari.....	47
<b>A.Yu. Mardanov</b>	
Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari.....	52
<b>A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li</b>	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish .....	57
<b>Abdullayev Elyorbek Odiljon o'g'li</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	62
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko'rsatkichlarini aniqlashning nazariy jihatlar.....	66
<b>Asraqulov Abduraxmon Sultonovich</b>	
Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyot va uning ayrim masalalari.....	70
<b>Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.....	74
<b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>	
Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.....	78
<b>Butanova Dilnoza Rustamovna</b>	
Global krizislar va ularning turizm iqtisodiyotiga ta'siri.....	83
<b>Hallakova Barnoxon bahodirjonovna</b>	
Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo'llanilishi.....	95
<b>Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li</b>	
Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o'rni.....	101
<b>Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi</b>	
Qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini baholash masalalari.....	104
<b>Isayev Jakhongir Muzaffarovich</b>	
Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari .....	110
<b>Kasimov Baxtiyor Usmanovich</b>	
Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi.....	113
<b>Mahamatova Maftuna</b>	
Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
<b>Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna</b>	



Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish usullari.....	124
<b>Said Po'latov Maxamedovich</b>	
Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry .....	128
<b>Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li</b>	
Dorivor o'simliklar yetishtirishning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni va xalqaro bozor savdosida prognozlar.....	135
<b>To'xtabayev Jamshid Sharofiddinovich, Maftuna Ermatova Arslonbek qizi</b>	
O'zbekistonga turistlar tashrifini ko'paytirishda raqamli texnologiyalarning o'rni .....	142
<b>Toshmurod Kulmanov</b>	
Agrobiznesni moliyaviy quvvatlash va rivojlanish istiqbollari .....	147
<b>Tursunova Dilnavo Islomovna</b>	
Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.....	150
<b>Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi</b>	
Yoshlar turizmini rivojlantirish holati va uni takomillashtirish yo'llari.....	159
<b>Allayor Norboyev Ismoilovich</b>	
Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish.....	162
<b>Boltayev Abror Sayitmuradovich</b>	
Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilishga uslubiy yondashuvlari.....	168
<b>Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich</b>	
Suv resurslaridan samarali foydalanishda suv solig'ining ahamiyatini oshirish .....	174
<b>Ikramov Nuriddin Kamolitdinovich</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq tushunchalarining nazariy masalalari .....	179
<b>Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Temur Olimovich Mamayunusov</b>	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – Agglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanishni harakatlantiruvchi omili sifatida .....	185
<b>Raximbayev Akmal Azatboyevich</b>	
Korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari .....	190
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b>	
Globalashuv sharoitida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....	195
<b>Salimov Dilshodbek Davronovich</b>	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	199
<b>Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich</b>	
Oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari .....	203
<b>Nilufar Umarova</b>	
O'zbekistonda transport xizmatlari ko'rsatilishi tahlili .....	207
<b>Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li</b>	
Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga ta'sirining tahlili .....	213
<b>Yangiboyev Sirojiddin Jo'ramurodovich</b>	
Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari .....	220
<b>Meliyev Isroil Ismoilovich</b>	
Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar .....	227
<b>Melikov Otabek Maxmadiminovich</b>	
Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o'rni.....	232
<b>Abdikarimov Islombek Ibragimovich</b>	
Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish modellariga oid zamonaviy tajribalar.....	237
<b>Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna</b>	
Задачи предмета «русского языка» на современном этапе .....	243
<b>Адилова Солияхон</b>	





Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati .....	247
<b>Farhod Mahmudovich Tirkashyev, Asomiddinov Husan Asomiddin o'g'li</b>	
Korrelyatsion-regression tahlil orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	252
<b>Gapparov Azim Qayumovich</b>	
O'zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri.....	258
<b>Isayev Atabek Djurabayevich</b>	
Prospects for the Development of Bond Circulation in the Capital Market.....	266
<b>Jurabek Sobirov</b>	
Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili.....	270
<b>Kuldashev Sherzod Alimardonovich</b>	
Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o'sishdagi roli .....	276
<b>Mamadiyeva Dilrom Ravshon qizi</b>	
Surxondaryo viloyatlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati tahlili .....	280
<b>Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna</b>	
Improving Internal Control System .....	287
<b>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</b>	
Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda OTMLar veb-saytlari samaradorligini oshirish.....	291
<b>Musayev Bekjon Shukurillayevich</b>	
Korxonaning narx-navo tizimi va narx siyosatini tahlil qilish .....	298
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhkomovna</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari.....	302
<b>Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li</b>	
Xizmatlar ko'rsatish subyektlarida biznes-modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalari.....	306
<b>N. B. Yahyoxonov</b>	
Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	311
<b>Nazarova Muslima Nazarovna</b>	
Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlarini .....	317
<b>Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich</b>	
Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari.....	322
<b>Olimova Nodira Xamrakulovna</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar .....	329
<b>Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po'latxon o'g'li</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari transformatsiyasini jadallashtirish yo'nalishlari.....	333
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi .....	338
<b>Rahimboyev Muxtorbek Ikrom o'g'li</b>	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	341
<b>Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	
Aholi moliyaviy savodxonligiga investitsiya kiritishning ahamiyati.....	345
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda valyuta siyosatini samarali tashkil etish.....	350
<b>Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li</b>	
Sharq va G'arb tamaddunida gender qarashlar .....	355
<b>Samandarova Gulxayo Abduraim qizi</b>	
Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari .....	359
<b>Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li</b>	
To'qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruvida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati .....	363
<b>Todjimamatova Mashxura Erkinovna</b>	
Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi .....	367
<b>Toshboyev Muzaffar Muxtorovich</b>	



Перспективы развития сферы услуг в Узбекистане.....	373
<b>Tsoy Marina Petrovna, Li Marina Rudolfovna, Romashkin Roman Anatolyevich</b>	
Opportunities for Bicycle Tourism in Zomin, Bulungur and Bakhmal Districts.....	379
<b>Urozaliev Elyor Shuxrat ogli, Xujamov Bobur bahodir ogli, Saydullayev Abbosjon Murodovich</b>	
Pul-kredit siyosati va moliyaviy inqiroz: uslubiyot va saboqlar .....	384
<b>Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich</b>	
Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari.....	391
<b>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Jumayeva Guzal Sherxon qizi</b>	
Telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	396
<b>Xusanov Ulugbek Nishanovich</b>	
Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini kengaytirish imkoniyatlari.....	402
<b>Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	405
<b>Yo'ldosheva Dilnoza G'ayrat qizi</b>	
Необходимость соблюдения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров .....	408
<b>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</b>	
Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	412
<b>Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o'g'li</b>	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari.....	416
<b>Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich</b>	
Пути повышения прозрачности бюджета Республики Узбекистан.....	420
<b>Адашов Гайрат Рустамович</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	424
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarovna</b>	
Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане .....	432
<b>Б. А. Хакимов</b>	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции.....	438
<b>Бабаева Гузаль Яшиновна</b>	
"Sirdaryo" va "Sirdaryo-Farm" erkin iqtisodiy zonasidagi xorxonalari erishgan yutuqlari, berilgan imtiyozlar va yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida .....	444
<b>Davlayev G'olib Ashurovich</b>	
Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili .....	447
<b>Djalilov Dostonbek Abduazizovich</b>	
Ishlab chiqarish tafovutining Markaziy Bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	452
<b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b>	
O'zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish.....	457
<b>Jonuzokov M. K.</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish.....	461
<b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>	
Особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции.....	465
<b>Исроилов Абдурашид Абдурахманович</b>	
Iqtisodiyotni globalashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish .....	471
<b>Kalandarova Nargiza Narimanovna</b>	
Проблемы регулирования и защиты инвесторов в развитии электронной коммерции и пути их решения .....	475
<b>Кенжебаева Гульфуза Рахматиллаевна</b>	
Сущность, цели и задачи определение уровня финансовой устойчивости предприятия в современных условиях .....	478
<b>Киличев А. А.</b>	
Sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish .....	485
<b>Kodirkulov Oybek Turdiboyevich</b>	



Классификация институциональных факторов, определяющих предпринимательскую активность в Узбекистане.....	490
<b>Курпаяниди Константин Иванович</b>	
Ho'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi tahlilini takomillashtirish.....	497
<b>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</b>	
Muqimiy ijodiDA milliy uyg'onish va iqtisodiy, falsafiy qarashlar .....	502
<b>Muxlisa Muxitdinova</b>	
Совершенствование управления портфелем залогов для обеспечения финансовой устойчивости: инсайты и рекомендации для Узбекистана .....	505
<b>Наимов Шахрух</b>	
Определение специфических особенностей и факторов влияющие на процесс внедрения международных требований и стандартов в коммерческих банков Республики Узбекистан.....	509
<b>Хайдаров Зохиρ Шаривович , Каражанова Гулноза Толлиевна, Хайдари Фидои Зохиρ Зода</b>	
Inson kapitalida mujassam bo'lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va roli .....	514
<b>Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova, Mexrangiz Olimovna Mamayunusova</b>	
Развитие рыночных отношений и усиление их влияния на рост объёмных и качественных показателей культурного туризма.....	521
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Основные направления цифровой трансформации в банковском секторе.....	525
<b>Рахимова Гавхар Ойбековна</b>	
O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli .....	530
<b>Saidova Subhinigor Azizovna</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirishning innovatsion yo'llari .....	535
<b>Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Nazarov Asqar Anvar o'g'li</b>	
Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	541
<b>Umirov Xurshid Islomovich</b>	
Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari.....	545
<b>Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna</b>	
"Авеста" – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии .....	549
<b>Хакимов Назар Хакимович, Садиков Анвар Каримович</b>	
Приоритетные направления развития теории формирования финансовой политики предприятия .....	555
<b>Хамдамов С. Ф.</b>	
Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish.....	562
<b>Xasanova Nafisa Shavkatovna</b>	
Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish.....	566
<b>Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi</b>	
Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar.....	572
<b>Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</b>	
Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari .....	578
<b>Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich</b>	
Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni.....	583
<b>Toyrova Amina Baxtisher qizi</b>	
Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili .....	588
<b>Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li</b>	
Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar .....	592
<b>К. Q. Tajibayev</b>	
Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике .....	599
<b>Камолова Феруза Кахрамоновна</b>	



O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	603
<b>Mirzayeva Lola Shavkatovna</b>	
Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni.....	607
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b>	
Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi.....	612
<b>Ruzmetova Gulira'no Atabekovna</b>	
Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....	620
<b>Salixov Sherzod Abduxakimovich</b>	
Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish .....	625
<b>Xusanova Gulsum Baxtiyorovna</b>	
Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish .....	628
<b>Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi .....	635
<b>Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li</b>	
Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....	640
<b>Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov</b>	
Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста.....	644
<b>Насиров Дилшод Фархадович</b>	
Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана .....	654
<b>Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович</b>	
Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir.....	659
<b>Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li</b>	
Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari.....	664
<b>Razzakov Jasur Xamraboyevich</b>	
Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan .....	670
<b>Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi</b>	
Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish .....	677
<b>Meliqulov Abduhalil Norinovich</b>	
O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari .....	683
<b>Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li</b>	
Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi.....	689
<b>Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna</b>	
Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari.....	694
<b>Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li</b>	
The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It.....	699
<b>Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara</b>	
Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar.....	705
<b>Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich</b>	
Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari .....	709
<b>Tuxliyev Iskandar Suyunovich</b>	
Mahalliy soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari .....	713
<b>Tuychiyev Kamoliddin</b>	
Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari .....	717
<b>Yadgarov Nodir Ravshanovich</b>	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlar va iqtisodiy asoslari.....	723
<b>Amirqulov Shuxrat Olimovich</b>	
Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari .....	727
<b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>	





O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari .....	730
<b>Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li</b>	
Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari .....	733
<b>M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva</b>	
Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda andarrayting xizmatining o'rni .....	737
<b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b>	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari .....	741
<b>Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich</b>	
Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish .....	745
<b>Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich</b>	
Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari.....	749
<b>Xusanov Qaxramon Nishonovich</b>	
Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике .....	753
<b>Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</b>	
Эффективность программ соответствия в различных компаниях .....	757
<b>Ахмедов Бехзод Ахмедович</b>	
Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте .....	762
<b>Хасанов Кахрамон Ахмаджанович</b>	
Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles.....	767
<b>Esanova Shohida Utkirovna</b>	
Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari .....	774
<b>Madiyarov Sanjar Gulyamovich</b>	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish .....	781
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li</b>	



# PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA XARAJATLAR HISOBINING USLUBIY MASALALARI TAKOMILLASHTIRISH

**Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası  
dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi



**Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li**

Mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari, ularning uslubiy masalalari tadqiq qilangan. Shu bilan birga, paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlarni samarali boshqarish maqsadida qisqa muddatli, o'rta muddatli hamda uzoq muddatli istiqbollarni belgilash, ular asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uslubiyoti ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** klaster, xarajatlar, xarajatlarni boshqarish, xarajatlarni paydo bo'lish joylari, qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli istiqbollarni belgilash.

**Abstract:** This article examines the specific features of cost accounting in textile clusters and their methodological issues. At the same time, the service of determining short-term, medium-term and long-term prospects for the purpose of effective cost management in the textile cluster, and making effective management decisions based on them, is scientifically based.

**Key words:** cluster, costs, cost management, places of cost occurrence, determining short-term, medium-term, and long-term perspectives.

**Аннотация:** В данной статье изучаются особенности учета затрат в хлопково-текстильных кластерах, их методические вопросы. При этом научно обоснована методика определения краткосрочных, среднесрочных и долгосрочных перспектив эффективного управления затратами в хлопково-текстильных кластерах и принятия на их основе эффективных управленческих решений.

**Ключевые слова:** кластер, затраты, управление затратами, места появления затрат, постановка краткосрочной, среднесрочной и долгосрочной перспективы.



## KIRISH

Dunyodagi bugungi ziddiyatlar, savdodagi cheklovlar iqtisodiyotda o'z aksini topmay qolmaydi. Jumladan, bu omillar oziq-ovqat va to'qimachilik eksportiga salbiy ta'sir qildi. Bu vaziyatda eng to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga tannarxni kamaytirish, chuqur qayta ishlashga va qo'shilgan qiymat yaratishga ko'proq investitsiya jalb qilib, eksportni ko'paytirishdir bugungi kunning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "O'zbekiston–2030" strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri "barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" <sup>[1]</sup> orqali "sanoatning "drayver" sohalari rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, to'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish" borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar mazkur sohalarni rivojlanish uchun dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda sanoat sohasini yanada rivojlantirish mazkur yo'nalishga klasterlar tizimini shakllantirish, ularning huquqiy maqomini belgilash hamda tarmoq korxonalari integratsiyasini joriy qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan tarmoq korxonalari faoliyatini paxta-to'qimachilik klasterlari orqali birlashtirish hamda ularning faoliyatini tartibga solish tarmoq rivoji uchun dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Sanoat iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish faoliyat olib borayotgan subyektlarda, shu bilan birga paxta-to'qimachilik klasterlarida ham hozirgi kundagi eng ustuvor vazifalardan biri foydani maksimallashtirish maqsadida xarajatlarni eng minimal holatga keltirishdir. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun, eng avvalo, sarflangan xarajatlarni samarali boshqarish va uning nazoratini amalga oshirish yotadi.

Bu borada bir qancha nazariy va amaliy izlanishlar olib borilishiga qaramay, fan-texnikaning rivojlanishi natijasida ushbu muammoning ochilmagan qirralari vujudga kelmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda sanoat tarmog'ining drayveri bo'lgan paxta-to'qimachilik klasterlarining moliyaviy natijalarini aniq hisoblash, asossiz va nohaq to'lovlar hamda soliqlardan asrashda asosiy omillardan biri bo'lgan xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etishda bir qancha muammolar ham yo'q emas.

Shunday muammolardan paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish xarajatlarini zamonaviy va samarali usullar asosida boshqarish va nazorat qilishdir. Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish va nazorat qilishda ularning kelib chiqish joylarini aniqlash, taqsimlash, maqsadi, yo'nalishi, hisobga olinishi, hisobdan chiqarilishi, ya'ni mahsulot tannarxiga taqsimlashni to'g'ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlar hisobini boshqarish va nazorat qilishdan maqsad ularning yo'nalishlarini belgilab olish hisoblanadi. Ishlab chiqarishdagi xarajatlar uchun alohida aniq bir maqsadga qaratilgan va ma'lum darajada hisob-kitob talab qiladigan soha yoki jarayon xarajatlar hisobi yo'nalishlarini belgilab beradi. Oddiy qilib aytganda, buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanuvchilar xarajatlarni qanday maqsadlarga sarflanishini bilishlari kerak.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'ziga xos texnologik xususiyati, ixtisoslanishi va maqsadi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda shunday xo'jalik yurituvchi subyektlar borki, ularda ishlab chiqarish xarajatlari mazmunining o'zi butun bir tizimni tashkil etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jaliklar samarali faoliyat olib borishi uchun, birinchi navbatda, xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish tartibga solinadigan xarajatlar, tartibga solinmaydigan xarajat va xarajatlar dinamikasi sifatida guruhlanishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Chunki xarajatlarni boshqarishda bunday guruhlanish xo'jalik faoliyatida ularning iqtisodiy o'rni, maqsadi hamda nazoratini amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

Tartibga solinadigan (boshqariladigan) xarajatlarga mahsulot yetishtirish uchun me'yorlashtirilgan ishlab chiqarish xarajatlari kiritilib, ular ma'lum me'yorlar asosida boshqariladi va nazorat qilib turiladi.

Tartibga solinmaydigan (boshqarilmaydigan) o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot yoki daromadlar o'rtasida to'g'ri va adolatli taqsimlash shu kungacha xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish sohasida hamda xarajatlarni boshqarish dunyo miqyosidagi muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini guruhlashga yangicha usulda yondashmoqdalar. Ba'zi ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari relevant (Relevant Costs) va norelevant (Sunk Costs) xarajatlarga bo'lib boshqarilmoqda.

Relevant xarajatlar – boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq xarajatlar yoki xizmatlar. Norelevant xarajatlar – boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar. Ular mahsulot ishlab chiqaril-magan taqdirda ham saqlab qolindi <sup>[2]</sup>.



Shunday ekan, xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishda yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar asosida paxta-to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobi tizimini tashkil etish va rivojlantirish lozim. Buning uchun klasterlar faoliyatida buxgalteriya hisobini tartibga solishda hisob siyosati ham uning o'ziga xos texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

"Xarajatlarni boshqarish – resurslarni tejay olish va ulardan olinadigan samarani maksimallashtirish qobiliyatidir"[3]. Xo'jaliklar faoliyatida xarajatlarni samarali boshqarish va nazorat qilish olinayotgan foydani eng yuqori darajaga ko'tarish maqsadida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jaliklar faoliyatida xarajatlarni samarali boshqarish orqali quyidagi imkoniyatlarga erishish mumkin:

- xo'jalik faoliyatida sarf qilingan resurslarni qachon, qaerda va qay tartibda amalga oshirilganligi to'g'risidagi axborotlarga ega bo'lish;
- xo'jalik faoliyati uzluksizligini ta'minlash va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha moliyaviy resurslarni qachon zarur bo'lishini oldindan bashorat qilish;
- xo'jalik faoliyati uchun sarflangan resurslardan foydalanish natijasida yuqori samara olishni ta'minlash mumkin.

Shuning uchun hozirgi iqtisodiy sharoitda xo'jaliklarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida ularning buxgalteriya hisobi tizimida xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish zarur, deb hisoblaymiz.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlarni to'plash, kuzatish, tizimli yondashuv asosida xarajatlarni boshqarish tushunchasini tadqiq qilish, ularda xarajatlarni samarali boshqarish kontseptsiyasini hamda uning rivojlanish darajasini belgilash uchun qo'llanildi. Shuningdek xarajatlar hisobini samarali tashkil qilish maqsadida qiyosiy va tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to'qimachilik klasterlarida olinadigan har qanday foyda zahirida, shu faoliyat uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslar yotadi. Bu degani ma'lum bir miqdorda sarf bo'lmasa foyda ham bo'lmasligini anglatadi. Klasterlar faoliyatida xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish orqali quyidagi istiqbolli samaralarni qo'lga kiritish mumkin:

- Klaster aktivlarini optimallashtirish: tovar-moddiy zaxiralar va debitorlik qarzlarni kamaytirish.
- Klaster passivlarini optimallashtirish: kredit portfelini optimallashtirish, xo'jaliklarning moliyaviy manbaini kuchaytirish.
- Klasterlar faoliyatida sodir bo'ladigan xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish: ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, o'rtacha xarajatlarni kamaytirish.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish ular bajarishi mumkin bo'lgan vazifalarning barchasini bitta tizimda umimlashtiradi va bu vazifalar quyidagilarni tashkil etadi:

- xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish;
- boshqaruvning asosiy funktsiyalari bo'yicha xarajatlarni aniqlash;
- alohida mahsulot turlari va butun xo'jalik bo'yicha xarajatlarni hisob-kitob qilish;
- mahsulot tannarxi tuzilishini baholash, mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari va xo'jalikning barcha bo'linmalarida xarajatlarni kamaytirish zaxiralarini izlab topish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlar birligiga to'g'ri keluvchi xarajatlarni hisob-kitob qilish, mahsulot tannarxini hisoblash;
- ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish va xarajatlarni baholashga imkon beruvchi axborot bazasini tayyorlash;
- butun mahsulot nomenklaturasiga asoslangan (raqobatbardosh) narxni shakllantirish;
- xarajatlarni o'lchash va nazorat qilishning oqilona usullarini aniqlash;
- xarajatlarni me'yorlashtirish usullarini tanlash, amaldagi sarflarning me'yoriy sarflardan farqlanishini tahlil qilish;
- barcha xarajat turlarini tanlab olingan tasniflarga muvofiq hisobga olish;
- xarajatlarni rejalashtirish va xarajatlar moddalari bo'yicha asosiy (tayanch) me'yorlarni belgilagan holda daromad va xarajatlar byudjetini shakllantirish va boshqalar.


Paxta-to'qimachilik klasterlarida yuqorida sanab o'tilgan xarajatlarni boshqarishning barcha vazifalaridan umumiy foydalanish natijasida xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining o'sishiga erishish hamda umumiy boshqaruv tuzilmasi – xarajatlarni bashorat qilish, rejalashtirish, tartibga solish, rag'batlantirish, hisobga olish, nazorat



qilish va tahlil qilishni bitta yaxlit tizimga birlashtirishga erishish mumkin. Bu esa, nazarimizda, subyektlarda umumiy yaxlit bir tizimni joriy etish xarajatlarini boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Xarajatlarni samarali boshqarish, asosan, boshqaruv funktsiyalari yordamida amalga oshirilib, ularning o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqlikdagi xarakatlari yopiq, takrorlanadigan boshqaruv jarayonlarini tashkil etadi va ular quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi (1-rasm).


Bu ketma-ketlik xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish orqali xo'jaliklar faoliyatida sodir bo'layotgan xarajatlarning maqsadli sarflanishi, nazorat qilinishi va natijada keladigan foydani kerakli maqsadlar uchun sarflanishini taminlaydi, deb hisoblaymiz.



1-rasm: Xarajatlarni boshqarish ketma-ketligi

Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiyalash davrida xo'jaliklar faoliyatida xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish orqali axborotlarni qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishning murakkab mexanizmlaridan foydalanishga asoslanadi. Xarajatlarni boshqarish tezkor, o'rta va uzoq muddatli usullaridan foydalanish, ayniqsa, tez o'zgarib turadigan bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tizimni avtomatlashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi, ya'ni xarajatlarni boshqarish tizimini kompyuterlashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bu borada rossiyalik iqtisodchi olimlar xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda (2-rasm) samara berishiga qarab uchta guruhini ajratib ko'rsatadilar [5]. Xarajatlarni boshqarish muddati qanchalik uzoq bo'lsa, boshqarish mexanizmi ham shunchalik murakkab bo'ladi.



2-rasm: Xarajatlarni boshqarish [4]

Xarajatlarni boshqarishning qisqa muddatli vaqt oralig'ida eng maqbul usuli xarajatlarni kamaytirish hisoblanadi. Xarajatlarni kamaytirish, ayniqsa, hozirgi iqtisodiy sharoitda samarali bo'ladi. Xarajatlarni boshqarishda sarflangan ham moddiy, ham moliyaviy resurslarni oqilona baholash usullarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.





Agar xo'jaliklar faoliyatida baholash usuli sifatida "ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish" tanlab olinadigan bo'lsa, xarajatlarni boshqarish bu xarajatlarni kamaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, xo'jaliklarda "qat'iy belgilab qo'yilgan xarajatlarda samarani maksimallashtirish" mezonini tanlab olish ham mumkin. Bu xarajatlarning avvalgi darajada qolib ketishini anglatmaydi: agar bunday o'sish ularning samaradorligini oshirsa, ular o'sishi mumkin. Xo'jalik boshqaruvchilari biror-bir xarajatlarning o'sish sur'atini oldindan aniqlab olishlari lozim. Qat'iy belgilab qo'yilgan xarajatlarda samaradorlikka erishish xarajatlarni kamaytirishdan ko'ra murakkabroq vositalar qo'llanishini talab qiladi. Bu yerda gap, asosan, ombor zaxiralarini optimallashtirish, "Just in time" (aniq vaqtda yetkazib berish), assortimentni boshqarish va ishlab chiqarishni rejalashtirishning turli usul-biyatlari haqida boradi.

Xarajatlarni o'rta muddatli istiqbolda boshqarish uchun motivatsiya mexanizmlaridan foydalaniladi: xo'jalik ish boshqaruvchisining mehnati uchun to'lanadigan ish haqini xo'jalikning ish natijalariga bog'lab ish samaradorligini oshirish mumkin.


Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlarni boshqarish tizimi, o'z navbatida, ularning paydo bo'lish nuqtalari, qaysi maqsadlar uchun yo'naltirilganligi, xarajat vositalari hamda bu xarajatlarning nazoratini amalga oshirishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, xarajatlarni samarali boshqarish va nazorat qilishda xarajatlarning paydo bo'lish nuqtalari hamda xarajat vositalariga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Xarajatlarning paydo bo'lish nuqtalari – xo'jaliklarda ro'y beradigan xo'jalik jarayonlarini hisobga olgan holda, xarajatlarning amalga oshiriladigan joy hisoblanuvchi xo'jalikning tarkibiy birliklari, ishlab chiqarish bo'linmalari hisoblanadi.

Xarajatlarni hisobga olish ob'ektlari sifatida paydo bo'ladigan joylarni tanlash, asosan, quyidagilar bilan belgilanadi:

- xo'jalik tarkibiy birliklarining o'tmishdagi faoliyatini baholash, hozirgi faoliyatini nazorat qilish va kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish zarurati;
- yuzaga keladigan xarajatlarning bir qismigina muayyan mahsulotlarga kiritilishi mumkinligi sababli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannaxsini hisoblab chiqish zarurati;
- xarajatlarning bitta turi turli joyda o'zini turlicha tutishi mumkinligi sababli xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga ajratish zarurati.

Xarajatlarning paydo bo'ladigan joylarni ajratishning quyidagi jihatlari bilan farqlash mumkin (3-rasm).




3-rasm: Xo'jaliklar faoliyatida xarajatlarni yuzaga kelish joylarini farqlanishi

Biz yuqorida sanab o'tgan jihatlar xo'jaliklar amaliyotida aralash ko'rinishda ham uchrashi mumkin. Bundan tashqari, xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish uchun xarajat vositalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Xarajatlarning vositasi – xo'jaliklarning ixtisoslashganligiga qarab mahsulot yetishtirish texnologiyasi darajasi turlicha bo'lgan mahsulot sanalib, ularni yetishtirish va sotish jarayonida xarajatlar yuzaga kelish sababi hisoblanadi va unga ushbu xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri belgi bo'yicha kiritish mumkin.

Shu maqsadda paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar vositalarini tasniflashning asosiy belgilari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir (4-rasm).



4-rasm: Xarajat vositalarining tasniflanishi

Bu esa, fikrimizcha, har bir xo'jalik faoliyatida xarajatlarni ularning vositalari bo'yicha guruhlash yetishtirilgan mahsulot tannarxini aniqlash uchun zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish xarajatlarni boshqarishga yuqorida keltirilgan fikrlar asosida paxta-to'qimachilik klasterlarida tashkil etilgan psixologik muhit va davlatning bu sohada olib borayotgan siyosati negizida tashkil etilgan hisob siyosati hamda uning o'ziga xos texnologik xususiyatini asosiy ta'sir etuvchi omillar, deb hisoblash mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, paxta-to'qimachilik klasterlarida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish asosiy faoliyat xarajatlarini doimiy nazorat qilish va uni samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Buning uchun klaster rahbarlari va mutaxassislari xarajatlar to'g'risida aniq va to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Boshqaruv uchun zarur axborotlarga ega bo'lish xo'jalik va uning bo'linmalari faoliyatini boshqarishda birday ahamiyatlidir.

Fikrimizcha, xarajatlar samaradorligini oshirish uchun yana bir muhim jihat sohaga innovatsion g'oyalarni joriy qilish, sohani yangi texnik va texnologik jihozlar bilan ta'minlash, ya'ni zamonaviy asbob-uskunalarini keng joriy etish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish lozim. Shu bilan birga, sohaning rentabellik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xarajatlar hisobini samarali olib borish va mahsulot tannarxini hisoblashning zamonaviy usullarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsadda xarajatlarni samarali boshqarish va nazorat qilish uchun paxta-to'qimachilik klasterlarida quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim, deb hisoblaymiz:

- faoliyat turidan kelib chiqib sarflangan xarajatlarni to'g'ri tasniflash;
- xarajatlarning kelib chiqish joylari va qanday maqsadda sarflanganligini aniqlash;



- xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan xarajatlar to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarni o'z vaqtida boshqaruv xodimlariga taqdim etish;
- xarajatlarni mahsulot tannarxiga kalkulyatsiya qilishda samarali va zamonaviy usullardan foydalanish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
2. Xolbekov R. Ishlab chiqarish hisobida xarajatlar boshqaruvi va nazorati. //Bozor, pul va kredit, —2005. — №12. —36-b.
3. Zamuraeva L.Ye. Upravlenie zatratami: uchebnoe. —Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, 2005. 15-b.
4. Toshpo'latov A.Sh. Improving the Cost Management Mechanism in Management Accounting. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Spain\ Volume 15, 2022, ISSN 2697-2212. —P. —176-183.<https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/453/436>
5. Zamuraeva L.Ye. Upravlenie zatratami: uchebnoe. -Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, —2005. —15-b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.